



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 4 - oktabr

63-8-0-F/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 126-moddasiga muvofiq viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasining 2021-yil 24-sentabrdagi 01-11/2202-son va viloyat Moliya bosh boshqarmasining 2021-yil 24-sentabrdagi 22-04-10/4472-son xatlarini inobatga olib:

1. Viloyat Moliya bosh boshqarmasi (B.Xursanov) viloyat budjetiga davlat aktivlarini xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar hisobidan:

Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Surxondaryo filialiga viloyatda buyrak transplantatsiyasi amaliyotini yo‘lga qo‘yish uchun tibbiy asbob-uskunalar va dori-darmonlar sotib olish bilan bog‘liq xarajatlarga 150 000 000 (bir yuz ellik million) so‘m;

viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markaziga viloyatda buyrak transplantatsiyasi amaliyotini yo‘lga qo‘yish uchun tibbiy asbob-uskunalar va dori-darmonlar sotib olish bilan bog‘liq xarajatlarga 150 000 000 (bir yuz ellik million) so‘m – jami 300 000 000 (uch yuz million) so‘m mablag‘ ajratsin.

2. Viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (K.Abdivohidov) ajratilgan mablag‘larning amaldagi qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda samarali va maqsadli sarflanishini ta‘minlasin.

3. Viloyat Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi (B.Husanov) ajratilgan mablag‘ning belgilangan tartibda maqsadli sarflanishini nazorat qilsin.

4. Buyrak transplantatsiyasi amaliyotini yo‘lga qo‘yish uchun tibbiy asbob-uskunalar va dori-darmonlar sotib olish kechiktirib bo‘lmaydigan holat sifatida baholansin hamda ajratilgan mablag‘lar yuzasidan xalq deputatlari viloyat Kengashiga hisobot taqdim qilinishi belgilab quyilsin.

5. Ushbu farmoyish ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari F.Mamanov zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyati hokimi



Bobolov T.A.